



TEXNIKUMLARDA ONA TILI DARSLARINI KASBIY SOHAGA YO‘NALTIRIB O‘QITISHNING SAMARALI USULLARI

Muxammedova Nigoraxon Davlatjon qizi

*Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan texnikum ona tili va
adabiyot fani o‘qituvchisi*


Annotatsiya: Mazkur maqolada texnikumlarda ona tili darslarini kasbiy sohaga yo‘naltirib o‘qitishning samarali usullari, bu jarayonning yoshlar ta‘limida ahamiyati va o‘quvchilarning kasbiy bilimini shakllantirish, til o‘rgatishda zamonaviy, amaliy va interaktiv yondashuvlardan foydalanish bo‘yicha bilimlar beriladi. Shuningdek, bolalarning o‘quv qobiliyatini oshirish, ona tili darslarini kasbiy yo‘nalishda samarali tashkil qilish, real hayotga yaqin til materiallarini tanlash, mashg‘ulotlarni jonli va ijodiy o‘tkazish orqali o‘quvchilarda chuqur kasbiy til ko‘nikmalarini shakllantirish tajribalari ochib beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kommunikativ ko‘nikma va ijodiy tafakkurni mustahkamlashga doir ilg‘or usullarni ko‘rsatib berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: texnikum, ona tili, kasbiy yo‘nalish, samarali usul, o‘quv jarayoni, metodika, kommunikativ ko‘nikma, amaliy faoliyat, interaktiv ta‘lim.

Аннотация: В статье представлена информация об эффективных методах преподавания родного языка в технических училищах с акцентом на профессиональную сферу, о важности этого процесса в образовании молодежи и формировании профессиональных знаний учащихся, об использовании современных, практических и интерактивных подходов в языковом обучении. Кроме того, раскрывается опыт повышения учебных способностей детей, эффективной организации уроков родного языка в профессиональном направлении, подбора языковых материалов, приближенных к реальной жизни, и формирования у учащихся глубоких профессиональных языковых навыков посредством живого и творческого проведения занятий. Главная цель статьи – показать передовые методы развития языковых компетенций учащихся, укрепления коммуникативных навыков и творческого мышления, необходимых для профессиональной деятельности.

Ключевые слова: техническое училище, родной язык, профессиональное направление, эффективный метод, образовательный процесс, методология, коммуникативные навыки, практическая деятельность, интерактивное обучение.

Abstract: This article provides information on effective methods of teaching native language lessons in technical schools with a focus on the professional sphere, the importance of this process in youth education and the formation of students' professional knowledge, the use of modern, practical and interactive approaches in language teaching. In addition, experiences are revealed on improving children's learning abilities, effectively organizing native language lessons in a professional direction, selecting language materials close to real



life, and forming deep professional language skills in students through lively and creative conduct of classes. The main goal of the article is to show advanced methods for developing students' language competencies, strengthening communicative skills and creative thinking necessary for professional activity.

Keywords: technical school, native language, professional direction, effective method, educational process, methodology, communicative skills, practical activity, interactive education.

Hozirgi kunda texnikumlarda ona tili darslarini kasbiy sohaga yo'naltirib o'qitish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon yosh avlodni nafaqat tilga, balki kasbiy sohani mukammal o'zlashtirishga ham yo'naltiradi. Zamonaviy pedagogik talablarga javoban, kasbiy yo'nalishda ona tili darslarini tashkil etish o'quvchilarda nafaqat til, balki soha terminologiyasi, nutq madaniyati, hujjat tuzish malakasi, kasbga oid matnlarni tahlil qilish va ulardan amalda samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega [1].

Texnikumlarda ona tili darslari o'quvchilarning bilimini oshirish, kasbiy faoliyatda samarali ishlash uchun kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, ijodiy fikrlashga undash, mustaqil fikr bildirish va kasbiy yo'nalishdagi bog'liq fanlarni chuqur o'zlashtirishlariga yordam beradi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish ona tili darslarini an'anaviy usullardan farqli ravishda, zamonaviy va amaliy usullar orqali olib borishni talab qiladi [2].

Ona tili darslarida kasbiy sohani inobatga olgan holda ish yuritishni o'rgatish, sohada ishlatiladigan rasmiy, ilmiy va kasbiy matnlarni o'zlashtirish muhimdir. O'quvchilar real sohaviy vaziyatlarda amaliy mashg'ulotlar bajarishlari, o'z kasbga oid hujjatlarni to'g'ri va samarali yozish, kasb doirasida og'zaki va yozma nutqni puxta egallashlari zarur. Bu borada darslarni interfaol mashg'ulotlar, ishchi guruhlarda ishlash, rol o'ynash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, sohadagi real misollarda mustaqil topshiriqlar tayyorlash kabi faol metodlardan foydalanish katta samara beradi. Kasbiy sohaga yo'naltirilgan til o'rgatishda materiallar tanlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Har bir kasb turiga doir matnlar, texnik, tibbiy, iqtisodiy, qurilish va boshqa yo'nalishdagi rasmiy hujjatlar, ish jarayonlari tavsifi, texnik topshiriqlar, ish joyida uchraydigan real vaziyatlarni tahlil qilish orqali o'quvchilar uchun o'z kasbga doir lug'at boyligi oshiriladi va tilda erkin muloqot qilish imkoniyati ortadi [3].

Ona tili darslari orqali kasbiy sohada til kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar, jumladan, texnik topshiriq va hisobotlar, texnologik yo'riqnomalar, tavsiyanoma, ariza, axborot xatlarini yozish, xizmat yozishmalarni to'g'ri rasmiylashtirish, og'zaki chiqishlar, suhbat va taqdimotlarni tayyorlash, loyiha ishi hamda kasbiy intervyuda nutq madaniyatini saqlash juda muhimdir. Amaliy mashg'ulotlarda til va kasbiy faoliyat o'zaro bog'liq ishlanadi. O'quvchilar o'z kasblari bo'yicha individual prezentatsiyalar tayyorlashadi, axborot texnologiyalaridan foydalanadilar, interaktiv metinlarni tahlil qiladilar, sohaviy terminlarni mustahkamlash uchun lug'at ishlanadi, fikr almashuv, savol-javob, muammoli

vaziyatlar yechimi kabi faol metodlardan foydalaniladi. Til va kasb integratsiyasi asosida ustozlar vazifalarni innovatsion usullar orqali tashkil etishadi. Ona tili o'qituvchilari uchun kasbiy yo'naltirilgan lug'at, kasbga oid nutq uslublari, sohaning o'ziga xos rasmiy yozishmalari, elektron hujjatlar, barcha sohalarida mavjud kommunikativ vaziyatlarni o'rgatish, til kompetensiyasini oshirishga yordam beradi. Har bir kasbga oid aniq so'z va iboralarni o'zlashtirish, ularni amalda samarali qo'llashga yo'naltirilgan intensiv mashg'ulotlar, kasb doirasida uchraydigan nutqiy vazifalar muhim rol o'ynaydi.

Texnikumlarda zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan maqsadli foydalanish, masalan, online testlar, virtual trenajyorlar, interaktiv platformalar orqali ona tili darslarini o'tish o'quvchilarning fanni qiziqarli va samarali o'zlashtirishiga yordam beradi. Bundan tashqari, amaliy loyiha ishlarini tayyorlash, kasbiy faoliyatda sohalararo ilmiy-texnik hamkorlik loyihalarini tuzish, ixtisoslikka doir seminar va davra suhbatlarida faol ishtirok etish ham ona tili kompetensiyasini oshiradi. Har bir o'qituvchi kasbiy yo'naltirilgan til ta'limi tizimining o'ziga xos jihatlarni chuqur o'rganishi, zamonaviy usullar, axborot resurslari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan boyitilgan yangi avlod dasturlaridan foydalanishi, mustaqil o'qishni rag'batlantirishi, amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar ijodini qadrlashi va namoyon qilishi muhim hisoblanadi [4].

O'quvchilarda kasbiy yo'nalishda nutq madaniyatini shakllantirish, jumladan, hushyorlik, aniq va qisqa ifoda, rasmiy va sohaviy atamalarni oqilona qo'llash, kasbiy ish yuritish qoidalari, etik-madaniy muloqot tizimini rivojlantirish zarur. Bu imkoniyatlar nafaqat ona tili, balki ijtimoiy va kasbiy taraqqiyot, shaxsiy muvaffaqiyat, intellektual va ma'naviy barkamollik uchun ham mustahkam poydevor yaratadi. Texnikumlarda ona tiliga oid bilimlarni kasbiy sohada to'g'ri va samarali tatbiq etish, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, kasbiy intizom, mas'uliyat va ijodkorlikni kuchaytirish orqali ilg'or kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi. Ona tili darslarining kasbiy sohaga yo'nalganligi o'quvchilar o'z kasblari bo'yicha so'z va matnlar, kasbiy yozishma, faol muloqotda yuqori natijaga erishishlari uchun turli imkoniyatlar ochib beradi [5].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, texnikumlarda ona tili darslarini kasbiy sohaga yo'naltirib o'qitish jarayonini samarali tashkil qilish uchun o'quvchining kasbiy ehtiyojidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlar, interfaol usullar, kasbiy soha uchun dolzarb mavzular asosida til ko'nikmalarini samarali shakllantirishga e'tibor qaratish lozim. Kasbiy yo'nalishda til o'rgatish nafaqat nazariy bilim, balki amaliy natijadorlik, mustaqil ta'lim, tanqidiy va ijodiy fikrlash salohiyati, kasbiy madaniyat va muloqotda yuqori natijalarga erishishni kafolatlaydi. Har bir o'quvchi o'z kasbga oid og'zaki va yozma nutq, hujjatlarni rasmiylashtirish, kasbiy suhbat va munosabatda to'liq yetuklikka erisha oladi. Bunday tizimli yondashuv texnikum bitiruvchilarining sohada raqobatdosh, ijodiy va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yormatova D.S. “Kasbiy yo‘nalishda ona tili ta‘limi.” — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Mamatova D.Q. “Texnikumlarda o‘quvchi nutqini rivojlantirish metodikasi.” — Samarqand, 2020.
3. Tursunov R.A. “O‘rta maxsus ta‘limda interfaol metodlar.” — Toshkent: Ma‘naviyat, 2018.
4. Karimova N.N. “Fanning zamonaviy o‘qitilish texnologiyalari.” — Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiya, 2021.
5. Alimova R.O. “Ona tili va adabiyoti o‘qitish samaradorligi.” — Qarshi: Nasaf, 2022.
6. Rustamova M.I. “Kasbiy sog‘lom aloqa va kommunikatsiyaning ahamiyati.” — Toshkent, 2017.
7. Olimjonov B.G. “O‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limida til va nutq madaniyati.” — Farg‘ona, 2016.